


## 2021-yil yanvar-iyul oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021-yilning yanvar-iyul oylarida Samarqand viloyatida jami 3 726,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2021- yil yanvar-iyul oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
soni**

2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,4 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,3 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 385 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi 3,1 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 55,0 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 83,8 % ni tashkil etdi.




## **Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

	<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, (+,-)</b>
	<b>01.08.2020- yil</b>	<b>01.08.2021- yil</b>	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2932</b>	<b>3317</b>	<b>385</b>
Samarqand sh.	1034	1155	121
Kattaqo'rg'on sh.	105	118	13
tumanlar:			
Oqdaryo	129	147	18
Bulung'ur	68	77	9
Jomboy	114	135	21
Ishtixon	146	153	7
Kattaqo'rg'on	115	136	21
Qo'shrabot	63	74	11
Narpay	84	83	-1
Payariq	222	276	54
Pastdarg'om	287	317	30
Paxtachi	60	69	9
Samarqand	123	144	21
Nurobod	41	61	20
Urgut	209	237	28
Toyloq	132	135	3



## Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.08.2021- yil holatiga




**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,8 %), Pastdarg'om (9,6 %) va Payariq (8,3%) tumanlaridir.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **678,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 185,5 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 18,2 % ni tahskil qildi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,3** % i yoki 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **85,1** % ni), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,4** % i), Kattaqoʼrgʼon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,9** % i), Bulungʼur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,4** % i), va Pastdargʼom (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,4%**) tumanlarga toʼgʼri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



### Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-iyul
- 2020- yil yanvar-iyul


Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **18,6 %** ni tashkil etib, **694,6** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **73,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **63,2 %** i bajarilib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **1,0 %** punktga ko‘paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **112,4 %** ni tashkil etgan holda **2 353,3** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **119,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **110,1 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,2 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 607,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **121,4 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **96,8 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2021- yil yanvar-iyul



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- yil yanvar-iyul

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-iyul

71,7 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **71,7 %** yoki **2 674,0 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

24,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **657,5 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi.

50,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1360,5 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **50,9 %** ni tashkil etdi.

24,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **656,0 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,5 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 726,6</b>	<b>110,0</b>	<b>2 674,0</b>
Samarqand sh.	1 304,7	106,5	936,2
Kattaqo‘rg‘on sh.	56,1	104,0	40,3
tumanlar:			
Oqdaryo	257,7	102,5	184,8
Bulung‘ur	180,1	245,7	129,2
Jomboy	160,9	104,4	115,4
Ishtixon	166,9	106,7	119,7
Kattaqo‘rg‘on	103,6	103,4	74,4
Qo‘shrabot	86,5	105,8	62
Narpay	103,9	102,7	74,6
Payariq	221,5	105,6	159
Pastdarg‘om	272,3	115,9	195,4
Paxtachi	104,5	102,1	75
Samarqand	189,5	111,9	136
Nurobod	45,9	104,0	33
Urgut	186	102,4	133,5
Toyloq	286,5	114,8	205,5

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-iyul

2,2




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

19,2



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

78,6



Bino va inshootlarni  
qurish

2021- yil yanvar-iyul

2,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

55,0



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

42,3



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **21,9** % ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,2** % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **15,5** % punktga kamaydi, **34,1** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **21,7** % punktga ko'payib, **44,0** % ni tashkil etdi.



2021- yil  
yanvar-iyul

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **16,1** % ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **21,9** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **83,8** % (**21,9** % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1** % ni tashkil etdi.



2021- yil  
yanvar-iyul


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **16,4 %** punktga kamaydi. **96,4 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **16,4 %** punktga ko'paydi.



2021- yil  
yanvar-iyul

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyul oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.  
1304,7

1

2

Toyloq  
286,5

Pastdarg'om  
272,3

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod  
45,9

2

1

Kattaqo'rg'on sh.  
56,1

Qo'shrabot  
86,5

3



## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*

**2021- yil  
yanvar-iyul**

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**